

## 2020-yil 1-fevral holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2020-yil yanvar oyida viloyatimizda 448 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 515 taga kamdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4 015 ta (17,9 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 26 424 tani tashkil etgan.






## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2020-yil 1-fevral holatiga 26 424 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17,9 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 24,1 % savdo, 13,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 13,4 % sanoat, 12,0 % qurilish, 4,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,5 % tashish va saqlash, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,2 % axborot va aloqa hamda 25,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

	Umumiy soni, birlik		01.02.2020-yil	
	01.02.2019 -yil	01.02.2020 -yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
<b>Jami</b>	<b>22 409</b>	<b>26 424</b>	<b>117,9</b>	<b>100,0</b>
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2 906	3 602	124,0	13,6
Sanoat	2 729	3 543	129,8	13,4
Qurilish	2 732	3 182	116,5	12,0
Savdo	5 245	6 364	121,3	24,1
Tashish va saqlash	803	912	113,6	3,5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	942	1209	128,3	4,6
Axborot va aloqa	259	304	117,4	1,2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	507	619	122,1	2,3
Boshqa turlari	6 286	6 689	106,4	25,3

Tumanlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Qarshi shahri (5 479 ta), Chiroqchi (2 157 ta), Koson (2 080 ta), Qarshi (2 079 ta) va Qamashi (1 763 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mirishkor (890 ta), Muborak (951 ta) hamda Nishon (1 017 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar


*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 25 653 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3 682 ta (16,8 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 24,1 % savdo, 13,5 % sanoat, 13,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 12,0 % qurilish, 4,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,5 % tashish va saqlash, 2,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % axborot va aloqa va 25,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Qarshi shahri (5 248 ta), Chiroqchi (2 099 ta), Koson (2 045 ta), Qarshi (2 033 ta) va Qamashi (1 733 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mirishkor (886 ta), Nishon (913 ta), hamda Muborak (919 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

### Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*


2020-yil yanvar oyida 448 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2019-yilning shu davriga nisbatan 2,1 marta-ga kamaygan.

### Yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Qarshi shahri (87 ta), Chiroqchi (52 ta), Koson (42 ta) va Qarshi (39 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Muborak (13 ta), Kasbi (13 ta), Shahrisabz (14 ta), Mirishkor (16 ta), Yakkabog' (16 ta) tumanlari korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan  
korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng ko'pi savdo (169 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (81 ta), sanoat (65 ta), qurilish (41 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (6 ta), axborot va aloqa (8 ta), hamda tashish va saqlash (20 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan  
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy  
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**Tijorat korxonalari**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2020-yil 1 - fevral holatiga 20 835 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 8 514 ta, oilaviy korxonalar – 1 343 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 10 483 ta va boshqalar 495 tani tashkil etgan.



**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar**


2020-yil 1- fevral holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 197 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 109 taga yoki 2,7 martaga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Afg'oniston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2020-yil 1- fevral holatiga xorijiy kapital ishtirokida 197 ta korxonona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxonona va tashkilotlarning eng yuqorisi Qarshi shahri (54 ta), Qarshi (18 ta), Kitob (15 ta) va Koson (15 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Mirishkor (5 ta), Shahrisabz tumanlari hamda Shahrisabz shahar (5 ta) hissalariga to'g'ri keladi.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda




### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 143 tasi qo'shma korxonalar, 54 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda**




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining faollik darajasi, %**



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**

	<b>Korxonalar soni</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, %</b>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>197</b>	<b>100,0</b>
Qarshi sh.	54	27,4
Shahrisabz sh.	5	2,5
<i>Tumanlar:</i>		
G'uzor	11	5,6
Dehqonobod	12	6,1
Qamashi	13	6,6
Qarshi	18	9,1
Koson	15	7,6
Kitob	15	7,6
Mirishkor	5	2,5
Muborak	8	4,1
Nishon	13	6,6
Kasbi	5	2,5
Chiroqchi	7	3,6
Shahrisabz	5	2,5
Yakkabog'	11	5,6


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda**



**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar**

2020-yilning yanvar oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 4 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 taga kamaygan. Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar asosiy qismi Koson tumani (2 ta yoki jamidagi ulushi 50,0 %), Dehqonobod tumani (1 ta yoki 25,0 %) va G'uzor tumanlari (1 ta yoki 25,0 %) hissalariga to'g'ri keladi. Qolgan hududlarda xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilmagan.

2020-yil yanvar oyida  
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Afg'oniston Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 1 ta, Turkmaniston Respublikasi - 1 ta, Eron Islom Respublikasi - 1 ta va Kanada - 1 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (3 ta), sanoat (1 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

### **Kichik korxonalar va mikrofirmalar**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2020-yil 1- fevral holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 20 676 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2020-yil 1- fevral holatiga qaraganda 20,0 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4 376 tasi (21,2 %) Qarshi shahri, 1 698 tasi (8,2 %) Qarshi, 1 668 tasi (8,1 %) Koson tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### **Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

<b>• Eng katta ulushi</b>	<b>• Eng kichik ulushi</b>
• Qarshi sh 21,2 %	• Dehqonobod 4,9 %
• Qarshi 8,2 %	• G'uzor 4,7 %
• Koson 8,1 %	• Shahrisabz 4,4 %
• Chiroqchi 8,0 %	• Kasbi 3,8 %
• Shahrisabz sh. 6,9 %	• Muborak 3,5 %
• Qamashi 6,9 %	• Nishon 3,2 %
• Kitob 6,7 %	• Mirishkor 3,1 %
• Yakkabog' 6,4 %	

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 20 676 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 6 155 tasi (29,8 %) - savdo, 3 427 tasi (16,6 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 3 411 tasi (16,5 %) - sanoat, 3 056 tasi (14,8 %) - qurilish, 1 141 tasi (5,5 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 870 tasi (4,2 %) - tashish va saqlash, 465 tasi (2,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 1 864 tasi (9,0 %) - boshqa faoliyat turlari hissalari to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




2020-yil yanvar oyida 426 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,1



martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Qarshi shahri (83 ta), Chiroqchi (50 ta), Koson (38 ta) va Qarshi (34 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Kasbi (12 ta), Muborak (13 ta), Shahrisabz (14 ta), Mirishkor (16 ta) hamda Yakkabog' (16 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (169 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (80 ta), sanoatda (65 ta), qurilishda (41 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (5 ta), axborot va aloqada (8 ta) hamda boshqa faoliyat turlarida (17 ta) tashkil etilgan.

**Oilaviy korxonalar**


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-fevral holatiga 1 385 tani tashkil etib, ulardan 1 343 tasi yoki 97,0 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat

ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 75,3 % oshganligini ta'kidlash lozim.

### **Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda**




### **Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini hududlar kesimida soni, birlikda**



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 33,1 % yoki 445 tasi sanoat, 20,8 % yoki 280 tasi savdo, 18,5 % yoki 248 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari,

15,6 % yoki 209 tasi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 2,5 % yoki 34 tasi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 1,3 % yoki 17 tasi qurilish, 0,7 % yoki 10 tasi axborot va aloqa, 0,7 % yoki 9 tasi tashish va saqlash hamda 6,8 % yoki 91 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarni  
iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, %**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko‘rsak, eng ko‘pi sanoat hamda savdo, eng kami esa axborot va aloqa, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

**2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan  
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	<b>Korxonalar soni</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, %</b>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>52</b>	<b>100,0</b>
Qarshi sh.	11	21,3
Shahrisabz sh.	6	11,5
<i>Tumanlar:</i>		
G'uzor	6	11,5
Dehqonobod	1	1,9
Qamashi	2	3,8
Qarshi	5	9,6
Koson	4	7,7
Kitob	-	-
Mirishkor	-	-
Muborak	2	3,8
Nishon	3	5,9
Kasbi	1	1,9
Chiroqchi	5	9,6
Shahrisabz	4	7,7
Yakkabog'	2	3,8

2020-yil yanvar oyida 52 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1,9 martaga kamaygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Qarshi shahar (11 ta), Shahrisabz shahar (6 ta), G'uzor tumani (6 ta) va Chiroqchi tumanlari (6 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Mirishkor hamda Kitob tumanlarida tashkil etilmagan.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 28,8 % yoki 15 tasi sanoat, 28,8 % yoki 15 tasi savdo, 15,4 % yoki 8 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 19,2 % yoki 10 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 3,8 % yoki 2 tasi axborot va aloqa hamda 3,8 % yoki 2 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**  
**Tel.:71 230-84-10 (11)**